

NAQSHBANDIYA TARIQATINING IKKI BUYUK VAKILI MANZIL TUTGAN
MAKON - VAXSHUVOR

Abdullahayev Jahongir Shuhrat o'g'li

Telefon:+99894 018 95 02

Email manzili:abdullahayevjahongir9595@gmail.com

Ushbu maqolada bugungi kunda qabrlari Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Kichik Vaxshuvor va Katta Vaxshuvor qishloqlarida joylashgan naqshbandiya tariqatining ikki yo'nalishiga mansub ikki buyuk pir – So'fi Olloyor va Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid Vaxshuvoriy hayoti va ijodiga doir ba'zi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, ular hayoti va ilmiy merosini o'rganish, ziyorotgohlari obod etish borasida amalga oshirilayotgan ba'zi ishlar borasida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid Vaxshuvoriy, So'fi Allohyor, "Tajvizi turki", "Sabot ul-ojiziyn", tassavvuf, aqida, iymon, pir, kamolot.

Abstract: This article presents some information about the life and work of two great pirs of the Naqshbandi sect, whose graves are located in the villages of Kichik Vakhshuvor and Katta Vakhshuvor in Altinsoy district of Surkhandarya region - Sufi Olloyor and Khoja Muhammad Maulana Zahid Vakhshuvvari passed. Also, information was given on some works being carried out to study their life and scientific heritage, to improve shrines.

Key words: Khoja Muhammad Maulana Zahid Vakhshuvvari, Sufi Olloyor, "Tajvizi Turki", "Sabot ul-Ojiziyn", Sufism, belief, faith, pir, perfection.

Ko'pchilik bu sarlavhani o'qishi bilan xayolida: "Vaxshuvor qanday joy", degan tabiiy savol tug'ilsa kerak, menimcha. Quyida ushbu maqolani o'qish jarayonida bu savolga ixchamgina qilib javob beramiz.

Vaxshuvor – o'zida buyuk avliyolarni kamolga yetkazgan so'lim bir qishloq. Shu zaminning bir farzandi sifatida uning tarixi va bugunini bog'laydigan buyuk ko'prik sifatida ikki ulug' avliyo – Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid Vaxshuvoriy va So'fi Olloyor haqida bilmaslik va ular shaxsiyatini anglamaslik – "Ular bizning buyuk ajdodlarimiz" deb, faxr etayotgan men kabi bugungi avlod uchun uyat bo'lsa kerak, nazarimda.

Bizga ma'lum ko'pgina manbalar, ilmiy tadqiqot va nashrlar orqali naqshbandiya tariqatining buyuk vakillaridan biri So'fi Olloyor hayoti va ijodi borasida ko'pgina ma'lumotlar olishimiz mumkin. Biroq, Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid Vaxshuvoriy xususida bizga ma'lum bo'lganlari juda oz va tabiiyki u zot shaxsiyatini yaxshiroq anglashga imkon bermaydi. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: naqshbandiya tariqatining yetuk vakillaridan biri, oltin silsilada Xo'ja Ahror Valiydek avliyoga bog'lanadigan bu zot haqida "hali ochilmagan yashirin sirlar" bo'lishi mumkin-ku. Bundan tashqari, bu oltin silsila halqasi u kishining shogirdi Darvesh Muhammad

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-10 (30- October)

Imkanagiy Vaxshuvoriy va uning o'g'li Xojagi Abduboqi Imkanagiy Vaxshuvoriy orqali davom etib nafaqat bu diyor balki, boshqa o'lkalarni ham tasavvuf nuri bilan yoritganida o'ziga xos hikmat bor, albatta.

Avvalo Alloh taoloning bu ulug' zotlar hayoti va ijodini o'rganish ishtiyoqini qalbimga solganligidan nihoyatda mammunman. Qolaversa, qishloqdoshlarim va ushbu mavzu ustida keljakda ishlashimga rag'bat bildirgan ustoz Mas'udxon Ismoilov bergan tavsiya va ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari uchun minnatdorchilik bildirgan holda, ushbu maqolani ikki aziz tariqat peshvolariga makon Vaxshuvor qishlog'i haqida tanishtirishdan boshlamoqchiman.

Vaxshuvor qishlog'i Surxandaryo viloyati Oltinsoy tumanining shimoliy qismida Boysun tog' tizmalarining sharqiy etagida hozirda Vaxshuvor soy deb ataladigan soyning ikki qirg'og'ida joylashgan. Bu qishloq o'z navbatida ikki qismga bo'lingan: soyning o'ng qirg'og'i Kichik Vaxshuvor va chap qirg'og'i Katta Vaxshuvor.

Qishloq nomining kelib chiqishi borasida turli rivoyatlar va ayrim mutaxasislar tomonidan ilgari surilgan turli fikrlar mavjud. Ko'pchilikka mashhur bo'lgan rivoyatga ko'ra, Vaxshuvor hududi bir zamonalr ilonlar makoni bo'lgan. Shu bois, "Vaxshumor" – "vaxshiy ilonlar makoni", "ilonlar darasi" deb, atalgan. Bu holat So'fi Olloyor bu hududga kelguniga qadar davom etgan va bu yerda odam yashamagan. Nihoyat, 1710-yillar atrofida hazrat bu yerga kelganlar va o'z xalifalaridan birining qo'liga duo yozilgan bir xat berib, shu yerdagi ilonlar podshosi – oq ilonnning oldiga yuboradi. Oq ilon bu nomani o'qigach, o'z qavmiga boshqa yerga ketish haqida buyruq beradi. Natijada, ilonlar bu yerni tark etib, Bobotog' tomonga o'tib ketadi. Yo'lida ular ikki manzilga to'xtab o'tadi va bu joylar hozirda Ilonsoy va Zahartepa deb nomlanadi. "

Taniqli olim, O'z.RFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi A. Jumanazar esa, o'zining "Vaxshuvor" nomli asarida bu joy toponimikasini boshqacha ma'noda ifoda etadi: "suvli joy", "obod makon", "daryo oqib o'tadigan", "suvli yer" va boshqalar.

Boshqa manbalarning guvohlik berishicha, bu hududda azaldan insonlar yashab kelishgan. Bu zaminda qachonlardir buddaviylik va zardushtiylik kabi dinlarga e'tiqod qilgan insonlar yashagan. VIII asrda islam dinining Movaraunnahrga kirib kelishi natijasida o'lka aholisi bashariyatga yuborilgan mukammal din – Islomni qabul qildi va bu din xalq hayotining ajralmas qismiga aylandi. Shu bois, asrlar davomida bu diyorda o'z e'tiqodini mahkam tutib, shariat mezonlarini o'ziga dasturilamal bilgan Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid Vaxshuvoriy va So'fi Olloyor kabi valiy zotlar, ulug' insonlar yashab o'tgan. Bugun bu yerlarga tashrif buyurayotgan ko'plab ziyoratchilar ularning haqqiga Qur'on tilovat qilib, duoga qo'l ochmoqdalar.

Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid 1450- yil Hisor viloyatida tavallud topadi. Vaholanki, XV asr o'rtalarida Vaxshuvor qishlog'i ham shu viloyat tarkibiga kirgan. Mutaxasislardan Abdulla Xolmirzayev va Xurram Hamdamovlar keltirgan ma'lumotga ko'ra, u kishining otasi Xo'ja Muhammad Ibrohim va bobosi Xo'ja Muhammad Balxiydir. U ona tomonidan naqshbandiya tariqatining yetuk pirlaridan biri Ya'qub

Charxiyning nevarasidir. Dastlabki tariqat ta'limni u bobosining Hisor viloyatidagi ba'zi muhtaram suhbatdoshlari davrasida oladi. So'ngra Xo'ja Ahror Valiy (1404 – 1490) suhbatiga muxlis bo'lib Samarcandga boradi. Bu suhbat qachon va qancha davom etganligi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Biroq, ko'pchilik mutaxasislar bu suhbat bir necha soat bo'lganligi borasida fikr bildiradi. U kishi naqshbandiya tariqatidagi silsilai oliyada Xo'ja Ahror Valiydan keyin yigirmanchi o'rinda qayd etiladi.

Mavlononing hayoti va ilmiy merosini o'rganishga doir manbaa va materiallar juda oz. Biroq, uning naqshbandiya tariqatidagi faoliyati va karomatlari "Al-Hadoiq ul-vardiya" asarida batafsil bayon qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Afsuski, bu asar hali topilganicha yo'q.

Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid 1529-yil (ba'zi manbalarda 1530-yil) vafot etgan. Qabri hozirgi Kichik Vaxshuvor qishlog'ida. Bir necha yil oldin Xitoyning Uyg'ur avtonom Respublikasidan kelgan ziyoratchilardan birining moliyaviy ko'magi ostida u kishining maqbaralari yangitdan bunyod etilib, ziyoratgoh hududi obodonlashtirildi.

Allomaning asarlar yozganligi haqida u kishining izdoshlari hech bir ma'lumot qoldirmagan. Ba'zi manbalarga ko'ra, uning asarlari saqlanib qolmagan. Boshqa ma'lumotga ko'ra, uning "Tajvizi turki" nomli asari mavjud bo'lib, unda Qur'oni karimni o'qish qoidalari, uni turkiy tilda o'qish, talaffuz qilish va imlo usullari aks etgan.

So'fi Olloyor hazratlarining bu makonni manzil tutishlari borasida ham bir qator rivoyatlar bor. Unga ko'ra, u kishi murid ovlab Vaxshuvorga kelganlarida Xo'ja Mavlono Zohidning muborak ruhi qo'nim topgan manzildan o'tishni u zotga nisbatan hurmatsizlik deb biladilar. (Chunki So'fi Olloyor maqbarasi bu yerdan shimoli-g'arbda joylashgan bo'lib, u yerga shu yo'ldan o'tib boriladi.) Shunda ikki avliyoning ruhi o'zaro suhbatlashadi va So'fi Olloyorga yuqoriga o'tishga izn beriladi. Faqat ular ziyoratiga kelgan kishilar avval Xo'ja Muhammad Zohid qabrlarini ziyorat qilib, so'ngra So'fi Olloyor ziyoratiga o'tishlari kerakligi aytildi. Shu bois, bu yerga kelgan ziyoratchilarning aksari avval bu yerni, so'ng So'fi Olloyor yotgan manzilni ziyorat qiladilar.

O'zining sodda, jo'shqin va xalqchil, biroq, nihoyatda sermazmun asarlari, afsona-yu rivoyatlarga qorishib ketgan hayot yo'li orqali kishilar qalbidan chuqur joy olgan, naqshbandiya tariqatining davomchilaridan biri bo'lgan So'fi Allohyor haqida bilmaydigan, u haqida eshitmagan kishilar kam topilsa kerak. Uning ismi Olloyor (ba'zi manbaalarda Allohyor), otalarining ismi esa Allohquli (ba'zi manbaalarda Olloquli, Temiryor)dir. So'fiy martabasi uning shariat va tariqat yo'lidagi e'tiqod va xizmatlari uchun berilgan.

Tojiddin Yolchiqul o'g'li (tatar tarixchisi)ning 1797- yil Qozonda nashr etilgan "Risolai aziza" ("Sabot ul-ojizin" sharhi) kitobida ko'rsatilishicha, So'fi Allohyor 1644-yil Buxoro xonligining Kattaqo'rg'on bekligi qoshidagi Minglar qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, xitoy-qipchoq qabilasining O'tarchi urug'iga mansubdir.

So'fi Allohyor avlodlari, shuningdek, akademik B. Valixo'jayev, professor B. Hasanov, professor S. Sirojiddinov va boshqalarning so'ngi ma'lumotlariga ko'ra, alloma 1634-yil tug'ilgan deb qayd qilinadi. Bunga ko'ra, sufiy hijriy hisobda 87 va milodiy hisobda 90 yil umr ko'rgan.

Alloma boshlang'ich ta'limni O'tarchida olgach, 10-12 yoshlaridan boshlab Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Otasi Temir Yor og'lining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadi U Buxoroda kata mavqe'ga ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari dargohida tarbiyalanib, chuqur diniy va dunyoviy ilm oladi. Jumladan, uning fiqhagini ustozlari Xo'ja Mo'min va Muhammad G'azniy bo'lgan.

Mutasavvuf o'zining "Maslak ul-muttaqiyn" kitobining hamd qismidayoq o'zining naqshbandiya tariqatiga mansub ekanligini ta'kidlaydi. Uning dastlabki piri shahrisabzlik Shayx Xo'ja Navruzdир. So'ngra, Buxorolik mashhur shayx Habibulloh eshonga qo'l berib, shayxlik darajasiga erishgan. Bundan tashqari, alloma mashhur tasavvuf shayxi Ofoq Xo'ja bilan ham uchrashgan.

Shoir umrining katta qismini Kattaqo'rg'onning So'fi guzarida o'tkazgan. So'ng Jom tog'inining Cho'nqamish go'shasida yashagan. Bu yerda allomaning o'g'li Siddiq Muhammad va qizining qabri joylashgan. U yerda So'fi Allohyor nomli masjid va buloq bor. Shuningdek, uning avlodlari shu yerda yashab kelmoqda. Keyin Shahrisabzning Dukchi qishlog'ida yashagan. Undan so'ng, Qo'bodiyon (1710), so'ngra, Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani Katta Vaxshivor qishlog'ida yashagan.

So'fi Allohyor Abdulazizzon hukmronlik qilgan davrda (1645—1680) taxminan 25 yoshlarida ma'lum muddat boj yig'uvchilar mahkamasining to'ralik mansabiga tayinlanadi va Buxoro xonligining Hisor va Qo'bodiyon bekligida ishlaydi. Holbuki, Olloyor to'ralik lavozimida ma'lum vaqt o'ta qatiqqa'llik bilan ishlaydi. Uning haqgo'yligi, g'irromga beshafqatligi shu darajaga yetadiki, uning nomini eshitgan ba'zi odamlar qo'rquvdan zir titraydi. Biroq, shoir bu boradagi haqsizliklar, jabr-zulmlarni ko'rgach, oxir-oqibat o'z xohishi bilan bu vazifadan voz kechadi. Uning to'ralikdan voz kechib, naqshbandiya tariqatini mahkam tutishiga sabab, taniqli navoiyshunos olim Yoqubjon is'hoqov tomonidan quyidagicha izohlanadi: "Ollohyor bojxona xizmatiga kirib, bir necha yil qattiqqa'l, shafqatsiz amaldor sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bir kuni Shayx Habibullohning bir muridi g'ayriqonuniy yo'l bilan Buxoroga mol olib kirayotganda Ollohyor tomonidan qattiq kaltaklanadi. Murid borib ustoziga arz qilib, Olloyor to'raning duoyi bad qilinishini so'raydi. Shunda shayx uning sabr qilishini aytib, shunday duo qiladi: "Iloho, bu to'rani bulardek g'arib ko'ngil aylagil, dunyo va oxirat murodini bergil." Shu ondan Ollohyorning holi o'zgarib, shayx huzuriga yig'lab keladi."

Rivoyatda aytlishicha, shoir o'zidagi ortiqcha kibrishni yo'qotish maqsadida so'yilgan qo'yning qornini boshiga kiyib, ichak-chavog'ini bo'yniga o'rab, Buxoro ko'chalarida yuradi. Buni ko'rgan odamlar Olloyor aqldan ozibdi, degan fikrga keladi. Ana shundan keyin shayx Habibulloh huzuriga bosh urib boradi. . O'n yildan keyin shayxlik martabasiga ko'tariladi.

U "Maslak ul-muttaqiyin" asarida o'z tarjmai holi borasida quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi: "Men barcha ayblarimga iqrorman, lekin ularning barchasini nazmga solishdan nochorman. Chunki men istifoda (uzrga loyiq) ahlidan emasman; xoja, mir, shahzoda emasman. Mendan avvalgi hayotimni so'rasang, eshitishing bilan qo'rqiб, mendan uzoqlashasan. Asr shohining xizmatida bo'lganman, har xil qavmlarning nonini yeganman. Lekin u nonlar ta'maning mahsuli edi. Bundan ortig 'ini aytmay qo'ya qolay. Taasufda o'tirish odatim edi, g'am yuqori-yu fikrim tubanda edi. Taom og'zimda zaharga aylanardi, shahardagi hayotimiz ufqi ana shunday edi. Har bir amaldorning yuziga kulib boqib xushomad qilish odat edi!"

Shoir umrining oxirini Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanining Katta Vaxshivor qishlog'ida (1710-1721) o'tkazgan. Katta Vaxshivor qishlog'ining mashhurligi So'fi Olloyor hazratlarining nomi bilan ham bog'liq. So'fi Olloyor bu qishloqni obodonlashtirib, Qorabuloq nomi bilan ataluvchi buloqdan chiqqan suvni qishloqqa olib kelib, 1713-yilda xalq hashari usulida masjid qurib ishga tushiradi. Bu masjid bugungi kunda ham xalqqa xizmat qilmoqda. U milodiy 1721-yil (hijriy 1113-yil) da shu yerda vafot etgan. Hozirda bu yerda alloma sharafiga maxsus maqbara qurdirligan va ramziy qabr toshi o'rnatilgan.

Alloma hayoti va ijodini o'rganishga e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Bu borada qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, 2005-yil 19-fevral kuni Surxondaryo viloyati Denov shahrida So'fi Allohyor jamg'armasi tashkil etildi.

Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islam ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib va tashviq qilishdan iborat. U "Maslak ul-muttaqin" ("Taqvodorlar maslagi"), "Murod ul-orifin" ("Oriflar murodi"), "Maxzan ul-mute'in" ("Itoatkorlar xazinasi") asarlarini forsiy, "Sabot ul-ojizin" ("Ojizlar saboti"), "Favz un-najot" ("Najot tantanasi") masnaviyalarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. "Mevalar munozarasi" nomli manzuma ham unga nisbat beriladi.

Allomaning "Murod ul-orifin" – "Oriflar murodi" kitobi 15 fasldan iborat. Unda tasavvuf ilmi va tawhid masalalari Islom olamidagi 30 ga yaqin mashhur ulamolar va buyuk so'fiylarning risolalariga suyangan holda tushuntirilgan.

"Maxzan ul-mut'iin" – "Itoatkorlar xazinasi" ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchisi "Aqidalar kitobi" deb nomlangan va unda jami 27 ta fasl o'rin olgan. Ikkinchi bo'lim esa amliy malalarga qaratilib, unda tahorat (10 fasl), namoz (42 fasl), zakot (4 fasl), ro'za (3fasl), nikoh va taloqqa oid kitoblarning har biri 17 tadan ortiq fasldan iborat.

Shoirning "Hajnoma" nomli asari ham bo'lib, u haqida ma'lumotlar juda oz. Chunki ul zotning xaj qilganliklari yoki qilmaganliklari borasida turli fikrlar yuradi. Alloma esa, asarda bu borada hech narsa demagan.

So'fi Allohyorning shoh asari "Maslak ul-muttaqin"—"Taqvodorlar maslagi" yoki "Gunoh ishlardan saqlanuvchilar yo'li" bo'lib, 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat. Bu shoirning eng katta asari bo'lib, 1700—1701-yillarda yozib tugallangan. XIX

asrning ikkinchi yarmida Qozixo'ja Hafizxo'ja o'g 'li bu asarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Illohiy ma'rifatning badiiy talqiniga bag'ishlangan bu asar el orasida shuhrat tutganidan so'ng do'st-u yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir kitob yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban u "Maslak ul-muttaqin"ni birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazmda bitgan va uni "Sabot ul-ojizin" deb nom bergan. O'zbek falsafiy didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo'l mish ushbu asarda tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy masalalari keng yoritilishi bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komilllik shartlarini birma-bir ta'riflab bergan. Axloqiy-ta'limiy ahamiyati jihatidan, xususan, "Maslak ul-muttaqin" va "Sabot ul-ojizin" asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qilib kelgan. Uning diniy tasavvufiy ruhdagi pand-u hikmatga yo'g'rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashqardan tortib Itil (Volga), Yoyiq (Ural) daryolari vohalari, Hojitarxon (Astraxan), Bulg'or, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan. Ular ko'p nusxalarda ko'chirilgan. 19-asrning oxirlariga kelib esa Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma yo'li bilan bir necha marta bosilib chiqqan.

So'fi Olloyor asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan, ularga bag'ishlab sharhlar yozilgan, lug'atlar tuzilib, u qo'llagan tasavvufiy istiloh va timsollar keng sharhlangan.

So'fi Olloyorning asarlarida Qur'oni karim oyatlari, Hadisi sharif hikmatlari va tasavvuf g'oyalari ajib bir tarzda uzviy bog'lanib ketgan. Faylasuf shoir ojizlarga, yo'ldan ozganlarga hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib beradi. Toliblarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Insofu adolatni, halollik va to'g'rilikni, oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlatni to'lib toshib kuylaydi, nafs va xudbinlikni qattiq tanqid qiladi. Dunyo lazzatlaridan voz kechib, o'zni Haqning inon-ixtiyoriga topshirish falsafasini ilgari suradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu ikki valiy zot xoki yotgan bu manzil va shu ulug' avliyolar hayoti va ilmiy merosini o'rganish ular shaxsiyatini anglashga, hali ochilmagan yashirin sirlarni kashf etishga yordam beradi. Davlatimiz tomonidan ulug' ajdodlarimiz hayoti va ijodini o'rganish va kelajak avlodga yetkazish borasida har tomonlama keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgan bir davrda bu borada erishilgan har bir yangilik milliy o'zligimizni yanada te'ranroq anglashga xizmat qiladi. Hukumatimizning ziyyarat turizmini rivojlantirish borasidagi siyositining amaliy ifodasi bo'lib yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida davlat muassasi shaklidagi O'zbekistondagi

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-10 (30- October)

Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3080-son. -Toshkent, 2017-yil 23-iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6165-son Farmoni.

O'zbek tilidagi manbaalar

1. М. М. Хайруллайев. "Маънавият юлдузлари". -Тошкент, А. Қодирий, 1999. Б--395.

2.У. Увватов. Ўзбекистон—буюк алломалар юрти. -Тошкент, "Маънавият", 2010. Б-- 396.

3."Саботул ожизин" шарҳи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёрловчилар.:М. Исмоилов ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. Б-527.

4. "Ҳидоят ут-толибийн"—“Сабот ул-ожизийн шарҳи”/ Сайид Ҳабибуллоҳ ибн Сайид Яхёхон. -Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. Б--292.

5. F. Hasanov. Ma'naviyat yulduzlari. -Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. B-365.

6. Ҳамидjon Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. -Тошкент: "Шарқ", 2004.

Б-206.

7. Равшан Мирзаев. Сўфи Оллоёрга замон боқажак. -Тошкент. Фан. 2007. Б--54.

8. А. Жуманазар. Вахшувор. -Тошкент. Akademnashr. 2007. Б – 256.

Internet saytlari

1. Lex.uz.

2. www.wikipediya.uz

3. iiau.library.uz

4. Shosh.uz

5. VKBooks